

**KONFERENSIYALAR** COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**APREL, 2026**

**ISSN 3093-8791**

**ELEKTRON NASHR:**

<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

**TOSHKENT-2026**

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil).– 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 24-aprel

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

## MUNDARIJA

### FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

*Valijonova Shaxzoda*

n-TARTIBLI CHIZIQLI O'ZGARMAS KOEFFITSIYENTLI BIR JINSLI BO'LMAGAN  
DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI ANIQMAS KOEFFITSIYENTLAR USULIDA YECHISH ..... 6-9

*Mullaboev Omonboy, Bo'riyev Yusufjon*

KO'P TILLI PARALLEL KORPUS ARXITEKTURASI VA GAPLARNI AVTOMATIK  
MOSLASHTIRISH ALGORITMI ..... 10-15

*Soyipov Jasurali, G'aniyeva Maxfuza*

FIZIKADAN MASALALAR YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA  
TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PISA  
TADQIQOTLARINING AHAMIYATI ..... 16-19

### IQTISODIYOT FANLARI

*G'ofurov Rashidjon, Nishonov Akmalxon*

KICHIK BIZNES SUB'EKTLARI TOMONIDAN TO'LANADIGAN SOLIQLAR VA  
MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI ..... 20-24

### FALSAFA FANLARI

*Парниева Айгуль*

ФИЛОСОФИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ КАК ПРОСТРАНСТВО  
СМОЛООБРАЗОВАНИЯ И ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ХХІ ВЕКА И  
СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ ..... 25-30

### FILOLOGIYA FANLARI

*Tursunova Farangiz*

TURKIY TILLARDA YUZ IFODASI VA ULARNING O'XSHASHLIK VA FARQLI  
JIHATLARI ..... 31-33

*Jo'rayeva Nozimaxon*

O'ZBEK TILIDAGI OLMOSHLARNING KO'P MA'NOLILIGI: SEMANTIK  
KENGLIK VA KONTEKSTUAL O'ZGARUVCHANLIK ..... 34-38

*Inatova Jasmina*

ARAB YOZUVIDAN LOTINGA O'TISH JARAYONI VA MUAMMOLARI ..... 39-42

*Mavjudboyeva Mardona*

DOSTONLARDA TUSH MOTIVINING O'RNI ..... 43-47

*Tilaboyeva Musobar, Xusniddinxonova Mahzuma*

GEORGE ORWELL ASARLARIDA TOTALITAR JAMIYAT TANQIDI ZAMONAVIY  
KONTEKSTDA ..... 48-50

*Xamidova Go'zal*

ZADIE SMITH ASARLARIDA ZAMONAVIY JAMIYAT TASVIRI ..... 51-53

*Adasheva Durdona*

FEMINIZM ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDA QANDAY AKS ETADI ..... 54-57

<i>Erkinov Ma'murjon</i> TARIXIY ROMAN: QIYOSIY-NAZARIY TAHLIL (INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA) .....	58-62
<i>Zokirjonova Madina</i> COLLOQUIAL LANGUAGE IN "DOWN AND OUT IN PARIS AND LONDON" A REFLECTION OF CLASS AND IDENTITY .....	63-65
<i>Azimova Anisa</i> KINETIC SIGNS AND EMOTIONAL CONCEPTUALIZATION IN UZBEK AND ENGLISH DISCOURSE .....	66-71
<i>Isanova Feruza</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINLARINING YASALISH USULLARI .....	72-77
<b>YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Bakhromova Laylo</i> IMPROVING INTERNATIONAL ANTI-MONEY LAUNDERING STANDARDS: PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPLEMENTATION AND PROPOSALS FOR ENHANCING EFFECTIVENESS .....	78-86
<i>Abdullayeva Sabohat</i> KRIPTOAKIVLAR ANONIMLIK XUSUSIYATINING HUQUQIY TABIATI: NAZARIY VA DOKTRINALI YONDASHUVLAR .....	87-90
<i>Muhammadjonova Gulasal</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI .....	91-93
<b>PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Omonova Muxlisa</i> DEONTOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK MOHIYATI .....	94-96
<i>Tadjibayeva Gavxaroy, Nazarov Abdug'affor</i> EKOLOGIK MADANIYAT ASOSIDA SALOMATLIKNI SAQLASHGA YO'NALTIRILGAN MASHG'ULOTLAR METODIKASI .....	97-100
<i>Abdulborieva Mexruza</i> TIZIMLI TAHLIL VA STEM YONDASHUVLARI ASOSIDA IQTISODIY YO'NALISH TALABALARI ANALITIK HAMDA KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI: AMALIY-METODIK MEXANIZMLAR .....	101-106
<i>G`ulomova Moxinur</i> BOSHLANG'ICH SINIF INGLIZ TILI DARSLARIDA NOODATIY TOPSHIRIQLAR .....	107-110
<i>Boboyeva Iroda, Olimjanova Jasmina</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....	111-118
<i>Ismoilov Ravshan</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	119-123
<i>Abduvaliyeva Farida</i> MULTIMEDIA VOSITALARINING TA'LIM JARAYONIDAGI DIDAKTIK JIHATLARI .....	124-127

<i>Эркинова Солохидинова Ранохон, Абдуазизова Вероника</i> МОТИВАЦИОННО ЦЕННОСТНЫЙ КОМПОНЕНТ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ .....	128-130
<i>Абдулбориева Мехруза</i> РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ВУЗЕ СРЕДСТВАМИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: МЕТОДИКА И РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТА .....	131-134
<i>Jalolova Shahnoza</i> THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS OF DISTANCE LEARNING AND FOREIGN LANGUAGE TEACHING .....	135-139
<i>Usmanova Nodira</i> USE OF NEW INNOVATIVE METHODS IN DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS .....	140-143
<i>Sodiqova Sevara</i> LINGUISTIC AND COMMUNICATIVE ASPECTS OF ENGLISH SPEAKING DEVELOPMENT THROUGH PROJECT-BASED LEARNING .....	144-149

## DOSTONLARDA TUSH MOTIVINING O'RNI

### Mavjudboyeva Mardona Muzaffar qizi

NamDU Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Email: [mavjudboyeva@gmail.com](mailto:mavjudboyeva@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola o'zbek xalq og'aki ijodi, xususan, qahramonlik va ishqiy-romantik dostonlarda tush motivining tutgan o'rnini fundamental tahlil qilishga bag'ishlanadi. Maqolada tushning shunchaki syujet elementi emas, balki asar kompozitsiyasini harakatlantiruvchi, qahramon psixologiyasini ochib beruvchi va kelajakdagi voqealar zanjirini bashorat qiluvchi muhim poetik vosita ekanligi isbotlangan. Tadqiqot davomida "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkumlari hamda "Kuntug'mish" kabi dostonlardagi tush ko'rish sahnalari mifologik, diniy va ijtimoiy jihatdan tasniflangan. Natijada tush motivining epik vaqtdan real vaqtga o'tish usuli sifatidagi funksional xususiyatlari aniqlangan.

**Kalit so'zlar.** Folklorshunoslik, doston, tush motivi, epik syujet, poetika, bashorat, mifologik qatlam, obrazlar tizimi, psixologik tahlil, an'aviylik, badiiy vaqt.

---

## THE ROLE OF DREAM MOTIFS IN EPICS

### Mavjudboyeva Mardona Muzaffar qizi

Namangan State University first-year student of faculty of Philology

**Annotation.** This research work is dedicated to a fundamental analysis of the role of dream motifs in Uzbek folk oral creativity, specifically in heroic and romantic-epics. The article proves that a dream is not merely a plot element but a vital poetic tool that drives the composition of the work, reveals the hero's psychology, and predicts the chain of future events. During the research, dream scenes in epics such as "Alpomish", the "Gorogli" series, and "Kuntugmish" were classified from mythological, religious, and social perspectives. As a result, the functional features of the dream motif as a method of transition from epic time to real time were identified.

**Keywords:** folkloristics, dastan (epic), dream motif, epic plot, poetics, prophecy, mythological layer, system of images, psychological analysis, traditionality, artistic time.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i8/n09>

### Kirish

Dostonchilik – xalq tafakkurining badiiy xazinasini bo'lib, undagi har bir detal asrlar davomida shakllangan estetik qoliplarga asoslanadi. Epik asarlarda tush motivi eng qadimiy va eng barqaror an'analardan biri hisoblanadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi zamonaviy adabiyotshunoslikda xalq og'aki ijodi namunalari nafaqat matn, balki chuqur psixologik va falsafiy tizim sifatida o'rganish talab etilmoqda.

Tush – inson ongi va ong osti jarayonlari o'rtasidagi ko'prikdir. Dostonlarda tush motivining qo'llanilishi qahramonning g'ayritabiiy kuchlar bilan muloqotga kirishishini ta'minlaydi. Masalan, qahramonning safarga o'tlanishi yoki kutilmagan qaror qabul qilishi ko'pincha aynan tush bilan bog'lanadi. Ushbu maqolada biz tush motivini o'zbek dostonchiligining janriy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uning struktura yaratuvchi rolini ochib beramiz.

### Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida dostonlarning janriy xususiyatlari va badiiy qatlamlarini yoritish uchun quyidagi ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi:

Qiyosiy-tipologik metod: "Alpomish" kabi qahramonlik eposi bilan "Kuntug'mish" kabi ishqiyy-romantik dostonlardagi tush motivining o'xshash va farqli jihatlari qiyoslandi. Bunda qahramonlik dostonlarida tush ko'proq urug' taqdiri va harbiy g'alaba bilan bog'lansa, ishqiyy dostonlarda individual his-tuyg'u va g'oyibona ishq (yor diydori) kontekstida tahlil qilindi. [1; B.73.].

Struktural-semantik tahlil: Doston matnidagi tush ko'rish jarayoni alohida struktur birlik sifatida olindi. Tush tarkibidagi ramzlar (masalan, "Alpomish"dagi din, "Go'ro'g'li"dagi g'oyibona pirlar) va ularning matn osti ma'nolari semantik jihatdan ochib berildi.

Mifopoetik tahlil: "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlarda uchraydigan tushlarning qadimiy mifologik ildizlari, animistik tasavvurlar va shomonlik e'tiqodi bilan bog'liqligi o'rganildi. Tush – olamlararo (real va g'ayritabiyy) muloqot vositasi sifatida talqin etildi.

Motiv tahlili: Folkloristik an'anaga ko'ra, tushning "epik tugun" (syujetni boshlab beruvchi nuqta) sifatidagi o'rni o'rganildi. "Kuntug'mish" dostonida tushning voqealar rivojini harakatlantiruvchi asos ekanligi ushbu metod yordamida isbotlandi.

### **Natijalar**

"Kuntug'mish" dostonida bosh qahramonlar – Kuntug'mish va Xolbeking ilk g'oyibona uchrashuvi aynan tush motivi orqali reallashadi. Umumturkiy eposlar tizimida tush motivi shunchaki badiiy detal emas, balki insonning ruhiy olami va taqdir chiziqlarini birlashtiruvchi strategik elementdir. Tush – qahramonni o'tmish va kelajak sirlaridan voqif etadi, uning ong ostidagi yashirin kechinmalarini yuzaga chiqaradi. Inson ruhining murakkab va sirli qirralarini tadqiq etishda tush eng ishonchli manba bo'lib, u personajning ichki evolyutsiyasini ko'rsatib beradi. Shu sababli ham, xalq dostonlarida voqealar zanjiri ko'pincha tush bilan bog'lanadi yoki tushda ayon bo'lgan bashoratlarni asosida davom etadi.

Dostondagi tush sahnasiga e'tibor qarataylik: [2; B.98.].

"Xolbeka tushida chiltonlar va g'oyiblar suhbatida bo'lib, u yerda Kuntug'mish bilan tanishadi, ruhi olib borilib, to'ra bilan bir-birining uzuklarini almashishadi. Xolbeka tushida Chiltonlar va mardon g'oyiblar bir tongda suhbat qilib o'tirib edi, bir chilton kelib Xolbeking ruhini olib bordi, bittasi kelib, Kuntug'mishning ruhini olib bordi. Chiltonlar to'y qilib, Xolbekani to'raga topshirdilar. Ikkovi bir-birovi bilan o'ynashib, to'rasining uzugini Xolbeka olib qo'lga soldi; Xolbeking uzugini to'ra olib qo'lga soldi. Shu kecha Kuntug'mish ham shunday bir tush ko'rdi. Shu ishda ikkovi ham uyondi. To'ra bir oh tortib, bu dardini hech kimga aytolmay, niginga qarasa, boshqa nigin; qog'ozga muhr qilib bossa, Xolbeking oti chiqadi. Xolbeka ham uyqudan uyg'onib, to'raning ishqida ilonday to'lg'onib, aslo orom-qarori qolmadi. Bu ham uzugini ko'rsa, o'ziniki emas; qog'ozga bosib ko'rsa, Kuntug'mish to'raning oti chiqadi".

Doston matnida Chiltonlar va g'oyib mardonlarning aralashuvi tushning oddiy fiziologik holat emas, balki ilohiy iroda ekanligini ko'rsatadi. Chiltonlar – xalq mifologiyasida taqdirni bog'lovchi, qahramonlarga yo'l ko'rsatuvchi g'ayritabiyy kuchlardir. Ularning Xolbeka va Kuntug'mishning ruhlarini olib borib, "to'y qilib" biriktirishi, bu nikohning "ko'klarda" (ruhiy olamda) allaqachon amalga oshganidan dalolat beradi. Bu tush qahramonlarning keyingi barcha azob-uqubatlari (hijron, zindon, sahro sarguzashtlari) o'z-o'zidan emas, balki oliy bir taqdirning sinovi ekanini qonuniylashtiradi. [3; B.55.].

Folklorshunoslikda tushning haqiqiyiliginis isbotlash uchun "tushdan moddiy ashyo bilan uyg'onish" usuli qo'llaniladi. Kuntug'mish va Xolbeking uzuk almashtirishi – tushning reallikka ko'chishi demakdir. Uyg'onganda barmoqdagi o'zga uzuk va muhrdagi o'zga ism

qahramonlarni qat'iy harakatga undaydi. Bu yerda tush – shubhadan ishonchga o'tish bekatidir. Agar uzuk bo'lmaganda, qahramon buni shunchaki xayol deb hisoblashi mumkin edi. Uzuk esa ularni “izlovchi” va “intiluvchi” qahramon statusiga ko'taradi.

Tushning bir vaqtda (“Shu kecha Kuntug'mish ham shunday bir tush ko'rdi”) ko'rilishi – telepatik bog'lanish bo'lib, bu ikki qahramonning ruhiy olami bir-biriga mosligini bildiradi. Xolbekaning “ilonday to'lg'onishi” va Kuntug'mishning “oh tortishi” – tushning inson psixikasiga naqadar kuchli ta'sir qilishini ko'rsatadi. Tush qahramonni o'zining eski, tinch hayotidan (shohlik va farovonlikdan) butunlay uzib oladi va uni ishqiy junun holatiga tushiradi.

Tush ichidagi savol-javob qahramonlarning bir-birini dunyo xaritasidan topishi uchun zarur bo'lgan “navigatsiya” vazifasini o'taydi. Bu orqali dostonchi voqelikka mantiqiy asos beradi: Kuntug'mish qayerga borishni, kimni qidirishni aynan tushdagi ushbu informatsiya orqali bilib oladi.

Ushbu tush – dostonning ekspozitsiyasidan tuguniga o'tish nuqtasi. Aynan shu tushdan keyin Kuntug'mishning otasi bilan ziddiyati boshlanadi, u taxtni tashlaydi va Zangar shahriga safar boshlanadi. Tushsiz dostonning bunday keskin va shiddatli rivoji bo'lishi mumkin emas edi.

“Go'ro'g'li” turkumining muqaddimasi hisoblangan “Go'ro'g'lining tug'ilishi” dostonida tush motivi asarning g'oyaviy markazini tashkil etadi. Tadqiqotimizning eng muhim qismi Shohdorxon ko'rgan “yomon tush” va uning Yusuf qur'ondozi tomonidan talqin qilinishi tahliliga bag'ishlanadi. Ushbu epizod dostonning barcha keyingi voqealarini (Bibi Hilolning go'rga ko'milishi va Go'ro'g'lining g'ayritabiiy tug'ilishi) harakatlantiruvchi asosiy mexanizmdir.

Dostonda Shohdorxon o'z tushini munajjimlar oldida she'riy tarzda bayon qiladi. Tushda bir necha qatlamli simvollar tizimi mavjud bo'lib, ularning har biri alohida epik ma'noga ega:

“Ikki bo'ri tog'da ikki sher quvdi,  
Sherbachchalar qo'yga oralab qoldi...”

Bu yerda bo'ri va sher qiyofasida bo'lajak qahramonlar (Go'ro'g'li va uning tarafdorlari) hamda Shohdorxon saltanatining to'qnashuvi ifodalangan. Sherbachchalarning qo'yga oralashi – begona va qudratli kuchning mavjud saltanat tartiblarini buzishiga ishoradir. Shohdorxon ko'rgan tushdagi tilla, qush va imorat obrazlari uning hukmronligi tugayotganidan dalolat beradi: Lagan tillaning sochilishi: markaziy hokimiyatning zaiflashishi va davlat xazinasining (kuchining) tarqalib ketishi.

Og'izdan qush uchishi: An'anaviy folklorda “davlat qushi” (humo) ning uchib ketishi – omad va baxtning yuz o'girishidir. Imoratning tekis bo'lishi: Hukmdor tayangan tartib-qoidalarning va uning jismoniy vujudining halokati. Yangi kuchning chiqishi – “Chinor” ramzi: “Bir chinor elimdan ko'karib ketdi,

Shoxasi urib, osmonga yetdi...”

Chinor – dostonchilikda uzoq umr ko'ruvchi, buyuk shajara ramzidir. Bu simvol Go'ro'g'lining dunyoga kelishi va uning shuhrati butun olamni tutishini anglatuvchi eng yorqin bashoratdir. [4; B.95.].

Doston poetikasida tushning o'zidan ko'ra uning ta'biri syujet uchun muhimroqdir. Yusuf qur'ondozi Shohdorxonning tushini shafqatsiz va aniq ma'nolarini ochadi:

Yusuf tilla sochilishini “Tepangdan sochilgan tillang – qoningdir” deb izohlaydi. Bu podshoh uchun urush va o'lim xabari hisoblanadi.

Og'izdan uchgan qushni "joningdir" deb atashi, qahramonning biologik o'limi muqarrarligini bildiradi.

Eng muhim burilish nuqtasi – munajjimning "Ikkovidan yaxshi farzandlar bo'lar" degan so'zlaridir. Bu tush ta'biri Shohdorxonni nafaqat shaxsiy o'lim bilan, balki o'rniga keladigan yangi, qudratli nasl (Go'ro'g'li) bilan qo'rqitadi.

Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, tush ta'biri doston kompozitsiyasida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Konfliktni ochib beradi: Podshoh va bo'lajak qahramon o'rtasidagi ziddiyat tush ta'biridan so'ng "yashirin" holatdan "ochiq" kurashga o'tadi.

Qahramonni harakatga keltiradi: Shohdorxon tush ta'biridan qo'rqib, zudlik bilan Bibi Hilolni va ijobiy qahramonlarni (Ravshanxon, G'ajdumbek) yo'q qilishga buyruq beradi.

Go'ro'g'lining "go'rda" (qabrda) tug'ilishi kabi g'ayritabiiy hodisa uchun aynan mana shu tush va uning qatag'onli ta'biri mantiqiy poydevor yaratadi. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonidagi Shohdorxon tushi – xalq dostonchiligidagi eng mukammal tush motivlaridan biridir. U nafaqat kelajakni bashorat qiladi, balki dostonning butun badiiy olamini qahramonlik va fojia o'rtasidagi muvozanatda ushlab turadi.

"Alpomish" dostonida tush motivi shunchaki syujet elementi emas, balki qahramonlar taqdirini bog'lovchi, ularni harakatga keltiruvchi va e'tiqodini belgilovchi fundamental vositadir. Tadqiqotimiz davomida ushbu dostonidagi tushlar ikki muhim yo'nalishda tahlil qilindi:

Dostonning eng go'zal va metafizik nuqtasi – Alpomish va Barchinoyning tushda uchrashishi sahnasidir. Dostonda keltirilgan parcha tushning "ruhlar ko'prigi" vazifasini ochib beradi:

Dostonda Chiltonlar (g'oyibona homiylar) Barchinoyning ruhini Chilbir cho'liga, Alpomishning yoniga olib borishadi. Bu yerda tush – oddiy tasavvur emas, balki real voqelikning ruhiy darajadagi ko'rinishidir:

"Bu so'zlarni ikkovining ruhi bir-biriga aytdi... Barchinning ruhini ham taniga kirgizib qaytdi".

Alpomish tushida Barchinni ko'rib, uning "oqquva kelgan, qizil chiroyli, barkamol" ekanini angelaydi. Bu tush qahramonni statik holatdan chiqarib, "safarga o'tlanish" (dinamik harakat) bosqichiga o'tkazadi. Tush orqali qahramonlar masofaviy to'siqlarni yengib, ma'naviy jihatdan birikadilar.

Dostonidagi eng muhim burilishlardan biri – qalmoq polvoni Qorajonning tush ko'rib, Alpomishga do'st tutunishi epizodidir. Dostonda keltirilgan matn tushning "hidoyat vositasi" ekanini isbotlaydi:

Qorajon Alpomishni ilgari ko'rmagan bo'lsa-da, tushida Chiltonlar va Rasul payg'ambar unga Alpomishning nasabini (qavm-u qarindoshini) ko'rsatadi. Bu tush Qorajonning "qulfi dilini" ochadi va uning qalmoqlar safidan chiqib, Alpomishga qiyomatli do'st bo'lishiga sabab bo'ladi:

"Qirq chilton bilan rasul payg'ambar qavm-u qarindoshingni tushimda ko'rsatib, sening bilan meni do'st qildi".

Qorajon tushidan so'ng "musurmon bo'ldim" deb e'tirof etadi. Bu yerda tush motivi dushman tarafdagi qahramonni ma'naviy poklash va uni markaziy qahramon bilan birlashtirish vazifasini o'taydi.

Alpomish Qorajonning tush haqidagi so'zlarini eshitgach, uning do'stligiga to'liq ishonadi. Bu doston poetikasida tushning nafaqat bashorat, balki personajlar o'rtasida ishonch va sadoqat o'rnatuvchi ekanini ko'rsatadi.

### **Xulosa**

Xalq dostonlarimizni o'rganar ekanmiz, tush ko'rish shunchaki oddiy tungi xayol emas, balki qahramonlar hayotini o'zgartirib yuboradigan katta kuch ekaniga guvoh bo'lamiz. Tadqiqotimiz davomida tahlil qilingan dostonlar asosida quyidagi xulosalarga keldik: Birinchidan, "Kuntug'mish" dostonida tush – sevgi va sarguzashtning boshlanishidir. Agar Kuntug'mish tushida Xolbekani ko'rib oshiq bo'lmaganida, u o'zining shohlik taxtidan kechib, uzoq safarlarga chiqmagan bo'lardi. Demak, tush qahramonni harakatga keltiruvchi asosiy turtki vazifasini o'taydi. Ikkinchidan, "Go'ro'g'li" dostonida tush orqali kelajakdan xabar beriladi. Shohdorxon ko'rgan qo'rqinchli tush va uning ta'biri doston syujetini keskinlashtiradi. Aynan mana shu tush sababli Bibi Hilol go'rga ko'miladi va doston qahramoni Go'ro'g'li g'ayritabiiy sharoitda dunyoga keladi. Bu tush dushmanlarning qo'rquvini, ijobiy qahramonning esa naqadar qudratli bo'lishini ko'rsatib beradi. Uchinchidan, "Alpomish" dostonida tush – sadoqat va do'stlik belgisidir. Alpomish va Barchinoyning tushida ruhlari uchrashishi ularning bir-biriga bo'lgan muhabbati naqadar pok va mustahkam ekanini isbotlaydi. Shuningdek, Qorajonning tush ko'rib musulmon bo'lishi va Alpomish bilan do'st tutunishi tushning odamlar o'rtasidagi adovatni yo'qotib, ularni birlashtira olishini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, tush motivi dostonlarimizning eng qiziqarli va sehrli qismidir. U qahramonlarga yo'l ko'rsatadi, ularni xavf-xatardan ogohlantiradi va bir-biridan uzoqdagi qalblarni birlashtiradi. Tushlarsiz dostonlarimizning jozibasi va sirliligi hozirgidek bo'lmas edi. Shuning uchun ham xalq baxshilari tush tasviriga juda katta e'tibor berishgan.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. O'zbek xalq ijodi. "Alpomish" (Doston). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1999.
2. O'zbek xalq ijodi. "Kuntug'mish" (Doston). – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004.
3. O'zbek xalq ijodi. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" (Doston). – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2006.
4. Eshonqulov J. "Folklorda tush va uning badiiy talqini". – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2011.

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**

**MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

**Mas'ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil). – 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 24-aprel.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**  
© Science problems team, 2026-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.